Bo'lajak tarixchilarda tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirishning amaliy texnologik tizimi.....	622
Anvarjonov Ahrorjon Ahadjon o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnatsevarlikka tarbiyalashda pedagogik texnologiyalarning turlari va ularni qo'llash imkoniyatlari.....	625
Xudaybergenova Adolat Usmanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-axloqiy tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning hamkorligi.....	629
Jumanova Fotima Uralovna, Azimova Zebxon Tohirovna	
4K yondashuvi asosida dars topshiriqlarini ishlab chiqish.....	635
Boboyeva Nafosat Tulqin qizi	
O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik diagnostika.....	639
Xolmatova Ziroatxon Anvarovna	
Raqamli ta'lim muhitida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati.....	642
Abdullayeva Ozoda Odiljon qizi	
O'yinchilarning texnik va taktik tayyorgarligi.....	645
Madaminov Oribdjan Nishanbayevich	



Ta'lim jarayonida gamifikatsiya va didaktik o'yinlar orqali metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	648
<i>Xayrullina Parizod Farg'at qizi</i>	
Dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini baholash mezonlari va monitoring tizimi.....	651
<i>Umurov Zarif Latifboyevich</i>	
Boshlang'ich sinflarda folklor asarlarini aksiologik yondashuv asosida o'qitish metodikasi	660
<i>Aytmuratova Elvira Ersultanovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilari tanqidiy fikrlashining psixologik va pedagogik mohiyati.....	663
<i>Haydarova Kamola Ergashboy qizi</i>	
Differensial ta'limning nazariy-konseptual asoslari.....	667
<i>Rasulova Nozigul Abdivoxid qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatga o'rgatishda kreativ shaxsni shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalar	671
<i>Rizoyeva Muslima Raxmonovna</i>	
Информационная компетентность через призму филологии: ключевые факторы формирования ...	679
<i>Хикматов Нодир Назимджанович</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida qadriyatlar tizimini shakllantirishning samarali yo'llari	683
<i>Mamatova Zarena Abduljalilovna</i>	
O'zbekiston va Angliyada pedagogik ta'lim tizimining tarixiy asoslari.....	686
<i>Miramatova Laylo Ravshanjon qizi</i>	
Innovatsion ta'lim muhitida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	690
<i>Nilufar Xalikova Mirkadirovna</i>	
Badmintonchilarda maxsus chaqqonlik tayyorgarligining o'yin faoliyatiga ta'siri	694
<i>Samadova Uktabar Hasanovna</i>	
<i>Maktab direktorlarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishda sinergetik</i>	
yondashuvning o'rni va ahamiyati	698
<i>Yusupova Dilnoza Fayzullayevna</i>	
Pedagogical Essence of Improving Students' Collaborative Skills Through Multi-Vector Approaches	702
<i>Turemuratova Aziza Begibaevna, Otelbayeva Muhayyo Alisher qizi</i>	
Tasviriy san'at mashg'ulotlarining maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv, estetik va ijodiy rivojlanishiga ta'siri	708
<i>Shaymuradov Taxir Zamanovich</i>	
Oliy ta'limda ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarni baholash mezonlari: falsafa fanining o'quv jarayoniga integratsiyasi	713
<i>Abdullayev Akmal Nasriddinovich</i>	
Klasterli ta'lim muhitida bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodlari.....	717
<i>Abdurahmonov Maqsad Bekjonovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanishning yetakchi omillari.....	720
<i>Abduvosiyeva Mahmuda Xamidullo qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ sifatlarini oshirish: zamonaviy yechimlar va muammolar	724
<i>Abdusalimova Yulduz Normurod qizi</i>	
Maktablarda sun'iy intellekt asosida xorijiy tillarni o'qitish afzalliklari	728
<i>Altimisheva Iroda Mavlonovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	731
<i>Ashurov Yusuf Alisher o'g'li</i>	
Bolalikni qayta anglash: mariya montessori pedagogik qarashlarining ilmiy asoslari	735
<i>Ismatullayeva Madinabonu Akmaljon qizi</i>	
14-15 yoshli o'quvchilarning jismoniy tarbiya vositalari orqali jismoniy tayyorgarligi samaradorligini oshirish metodi	740
<i>Karimboyev Og'abek Qadamboyevich</i>	

O'zbekiston xalqlarining amaliy san'ati va ma'naviy merosini o'rganish: tarixiy va pedagogik jihatlar	744
Kayumov Erkin Kazakbayevich	
Fizika ta'limida kognitiv texnologiyalar asosida talabalarning mantiqiy va analitik tafakkurini rivojlantirish yo'llari	748
Madumarov Shodonbek Az'amjonovich	
Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonlarida pedagogik-psixologik bilimlarning ahamiyati	751
Muratova Shaxnoza Ibatovna	
Yoshlar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashda pedagogik resurslar va hamkorlik infratuzilmasining ahamiyati	754
Matnazarov O'ktam Latipovich	
Maxsus pedagogika o'qituvchilarining pedagogik va psixologik tayyorgarlik darajasi	757
Oxunov Ilxomjon Abdunabiyeich	
Funksional bog'liqlikni tushunishda vizual-eksperimental metodning samaradorligi	760
Qobilova Nargiza Anvarovna, Shamuratov Zafar Ergashevich	
The Psychological Importance of Emotional Intelligence and Stress Resilience in Increasing Professional Efficiency of Primary School Pedagogues	766
Tajiboyeva Odinakhon	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar jarayoni sifatini monitoring qilish vositasi sifatida	769
Tashbayev Naim Sadikovich	
Axloqiy tafakkur va axloqiy qaror qabul qilish kompetensiyasi tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati	773
Temirova Oydina Muhiddinova	
Oliy ta'lim muassasalarida "Muhandislik kompyuter grafikasi" fanini o'qitishning metodik asoslari va zamonaviy yondashuvlari	776
Xamidov Dilshod Olimjon o'g'li	
Kasbiy ta'lim rahbarlarining individual yondashuv asosida kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari ...	780
Yangiboyev Kamol Norboyevich	
Тема экологических проблем как элемент духовно-нравственного воспитания студентов в произведениях Чингиза Айтматова	784
Абдулвохидов Элёр	
Девиантное поведение школьников в образовательной среде: проблемы классификации и гендерные особенности восприятия педагогами	789
Алимжанова Матлюба Юнусовна	
Анализ проблем развития профессиональной иноязычной компетенции по английскому языку у студентов медицинских вузов	793
Исраилова Илона Халитовна	
Психолого-педагогические условия использования изобразительной деятельности как средства стимуляции коммуникативных навыков у воспитанников с синдромом дауна	798
Каримова Регина Шовкатовна	
Методика развития специальной физической подготовленности футболистов 11–12 лет с использованием современного инновационного оборудования	802
Мирзабаев Диёрбек Камилович	
Нейроигра как эффективное средство развития познавательных и регуляторных функций у детей дошкольного возраста	805
Намазбаева Лола Закировна, Маткаримова Шарира Рахимжановна	
Методы и приёмы технологии развития критического мышления в курсе "Общая педагогика": опыт проектирования учебного процесса в вузе	809
Янкина Рано Садыковна	

KASBIY TA'LIM RAHBARLARINING INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Yangiboyev Kamol Norboyevich

Professional ta'limni rivojlantirish instituti fakultet dekani,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v. b.

Annotatsiya: Maqolada kasbiy ta'lim muassasalari rahbarlarining kompetensiyasini rivojlantirishda individual yondashuv asosida pedagogik mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etish yo'llari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, rahbar kompetensiyasiga qo'yilgan talablar individual hamda amaliy yondashuvlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: menejment kompetensiyasi, kasbiy ta'lim muassasasi, texnikum, qattiq ko'nikmalar, yumshoq ko'nikmalar, kompetensiya, strategik ko'nikmalar, psixometrik testlar.

Abstract: The article presents ways to apply pedagogical mechanisms in practice based on an individual approach to developing the competence of leaders of vocational education institutions. It also analyzes the requirements for leadership competence together with individual and practical approaches.

Key words: management competence, vocational education institution, technical school, hard skills, soft skills, competence, strategic skills, psychometric tests.

Аннотация: В статье показаны способы практического применения педагогических механизмов, основанных на индивидуальном подходе к развитию компетенций руководителей профессиональных образовательных учреждений. Также анализируются требования к компетенциям руководителя, а также индивидуальные и практические подходы.

Ключевые слова: управленческая компетенция, профессиональное образовательное учреждение, техникум, жёсткие навыки, мягкие навыки, компетенция, стратегические навыки, психометрические тесты.

KIRISH

Hozirgi globallashtirish sharoitida ta'lim tizimini samarali boshqarish va tashkil etish mamlakat taraqqiyotining muhim tarkibiy omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bu borada kasbiy ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv (menejment) kompetensiyasi yuqori darajada bo'lishi ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta'lim tizimi rahbarlardan faqat ma'muriy boshqaruvni emas, balki innovatsion fikrlash, strategik rejalashtirish va inson resurslarini samarali boshqarish kabi ko'nikmalarni ham talab qiladi. Menejment kompetensiyasi rahbarning bilim, ko'nikma va malakalar majmuasidan iborat bo'lib, u tashkilot faoliyatini samarali boshqarishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, rahbarlarning kasbiy rivojlanishida individual yondashuv muhim o'rin tutadi. Chunki har bir rahbarning shaxsiy qobiliyati, tajribasi va boshqaruv uslubi turlicha bo'ladi.

Shu sababli kasbiy ta'lim muassasalari rahbarlarining menejment kompetensiyasini individual yondashuv asosida rivojlantirish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Kasbiy ta'lim muassasasi rahbari ta'lim muassasasining umumiy faoliyati uchun javobgar hisoblanadi. U ta'lim jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish, o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash va o'quvchilarga sifatli bilim berish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Samarali rahbar yaxshi tashkilotchi bo'lishi kerak. U o'quv jarayoni, amaliyot mashg'ulotlari va tarbiyaviy ishlar o'rtasida muvofiqlikni ta'minlaydi.

Bu borada zamonaviy kasbiy ta'lim muassasasi rahbari yangi texnologiyalar va innovatsion ta'lim usullarini joriy qilishga intilishi lozim. Bu o'quvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Rahbar o'qituvchilar bilan hamkorlikda ishlaydi, ularning malakasini oshirishga e'tibor qaratadi hamda jamoada sog'lom psixologik muhit yaratadi. Kasbiy ta'lim muassasasi rahbari muassasaning kelajakdagi rivojlanishini rejalashtira olishi kerak. U mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda ta'lim yo'nalishlarini rivojlantiradi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy ish beruvchilar ham qattiq, ham yumshoq ko'nikmalarga ega xodimlarni talab qiladilar. Qattiq ko'nikmalar – bu o'z ishini yuqori professional darajada bajarish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalardir. Muvaffaqiyatli professional faoliyat uchun menejerlar o'zlarining kompetensiya portfelida qo'shimcha professional ko'nikmalarga ham muhtoj bo'ladilar. Bu ko'nikmalar yumshoq ko'nikmalar deb ataladi. Ular yetakchilik fazilatlarini rivojlantirish, boshqaruv jamoasini tuzish va rivojlantirish qobiliyati hamda beqarorlik, noaniqlik va murakkab sharoitlarda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish bilan bog'liqdir ^[1].

Pedagogika fanlari doktori M. Vahobov kompetensiya tushunchasini shaxsning bilim va ko'nikmalarini amaliy faoliyatda mustaqil qo'llay olish qobiliyati sifatida izohlaydi. Olimning ta'kidlashicha, kompetensiya faqat nazariy bilim emas, balki shaxsning kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy faoliyatda samarali harakat qilish layoqatini ham o'z ichiga oladi. Uning fikricha, ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish rahbarlarning tashkiliy, kommunikativ va boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbek pedagog olimlari N. S. Kiyamov va Z. Shomaxmatova kompetensiyani shaxsning kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, tajriba va shaxsiy sifatlar majmui sifatida talqin qiladilar. Ular kompetensiyaning quyidagi turlarini ajratadi:

- kasbiy kompetensiya;
- shaxsiy kompetensiya;
- ijtimoiy kompetensiya;
- ma'naviy-ma'rifiy kompetensiya.

Olimlarning fikriga ko'ra, ta'lim rahbarlari ushbu kompetensiyalarni kompleks rivojlantirish orqali samarali boshqaruvni amalga oshira oladilar ^[2].

A. P. Panfilova va S. S. Mixalchenko ijtimoiy kompetensiyani oshirish hamda hissiy intellektni rivojlantirish metodologiyasini joriy etishni "Menejer ijtimoiy me'mor sifatida" kursi misolida o'rganadilar. Mazkur metodologiya universitet talabalarini uchun turli interaktiv va faol o'qitish usullaridan foydalanishni o'z ichiga oladi ^[3].

E. N. Maxmutova, M. M. Andreeva va T. A. Dmitrenko menejment talabalarini kommunikativ kompetensiyasini oshirishning metodologik vositasi sifatida ijtimoiy-psixologik treningning tuzilishi va mazmunini takomillashtirish strategiyasini tahlil qiladilar. Tadqiqotda mualliflarning universitet ta'lim muhitida hamda tashkilot ichida ijtimoiy-psixologik treningni amalga oshirishga doir yondashuvlari keltirilgan ^[4].

I. E. Sarafanova tadqiqotida menejning tashkiliy va boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish darajasini oshirish uchun o'yin texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan ^[5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kasbiy ta'lim rahbarlarining kompetensiyasini individual yondashuv asosida rivojlantirish mexanizmlari tizimlashtirilgan keyslar, analiz va tahlil metodlaridan foydalangan holda o'rganildi. Tadqiqot jarayonida rahbarlarning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish hamda individual rivojlanish strategiyalarini aniqlashga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Xususan, keys-stadi (case-study) usuli orqali kasbiy ta'lim muassasalarida yuzaga keladigan real boshqaruv vaziyatlari tahlil qilinib, rahbarlarning qaror qabul qilish, muammolarni hal etish va boshqaruv faoliyatini optimallashtirish ko'nikmalari baholandi.

Shuningdek, ilmiy analiz va qiyosiy tahlil metodlari yordamida kasbiy ta'lim tizimida rahbarlar kompetensiyasini rivojlantirishga oid mahalliy va xorijiy tajribalar o'rganildi. Mazkur metodlar orqali rahbarlarning boshqaruv faoliyatida zarur bo'lgan strategik fikrlash, kommunikativ madaniyat, liderlik qobiliyati hamda innovatsion yondashuvlarni qo'llash darajasi aniqlashtirildi. Tadqiqot davomida olingan natijalarni tizimlashtirish va umumlashtirish jarayonida empirik kuzatish, taqqoslash, pedagogik tahlil hamda umumlashtirish metodlaridan ham foydalanildi. Natijada kasbiy ta'lim rahbarlarining kompetensiyasini individual yondashuv asosida rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik-psixologik mexanizmlar, boshqaruv faoliyatini takomillashtirish omillari hamda rahbarlarning kasbiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Kompetensiya" tushunchasi murakkab bo'lib, keng mazmunni qamrab oladi hamda professional, ijtimoiy-psixologik, huquqiy va boshqa xususiyatlarni birlashtiradi. Umuman olganda, mutaxassisning kompetensiyasi ma'lum bir sohada muvaffaqiyatli professional faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar, fazilatlar va shaxsiy xususiyatlar majmuini ifodalaydi ^[6].

So'nggi paytlarda boshqaruv kadrlari va o'qituvchilarni shakllantirish hamda rivojlantirishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'lim sohasida dolzarb masalaga aylandi. Kasbiy ta'lim tashkiloti rahbari boshqaruv kompetensiyalariga ega bo'lishi zarur. "Kompetensiya" tushunchasining aniq va yagona talqinini hozirgi vaqtda mahalliy hamda xalqaro psixologik va pedagogik adabiyotlarda uchratish qiyin. Biroq ta'lim tizimini ushbu yondashuv nuqtai nazaridan modernizatsiya qilish "kompetensiya" atamasining mazmunini yagona tizimga keltirishni taqozo etadi. Mavjud ilmiy bilimlarni tahlil qilish ushbu tushunchalarni "potensial–real" yo'nalishi bo'yicha farqlash imkonini beradi. Kompetensiya murakkab va yaxlit xususiyat sifatida qaraladi hamda uning mazmuni faoliyatning maqsadlari, vazifalari va tabiatiga mos ravishda shakllanadigan kompetensiyalar majmuasidan iborat bo'ladi. So'nggi o'n yillikda texnikum direktorlarining kasbiy rivojlanish nazariyasi va amaliyotini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar sezilarli darajada ortdi. Bu holat texnikum direktorining kasbiy faoliyatida shaxsiy va kasbiy qobiliyatlarning professional jihatdan muhim va ahamiyatli ekanligi bilan izohlanadi [7].

Bugungi mehnat bozorida kasbiy ta'lim muassasalari direktorlarining professional faoliyatiga yuqori talablar qo'yilmoqda. Bu talablar, avvalo, tashqi ijtimoiy-madaniy muhit ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim tashkilotining samarali faoliyatini ta'minlash zarurati, o'qituvchilarni moddiy rag'batlantirishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish, o'quv jarayonini kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, ta'lim jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan talablarning ortishi, kasbiy ta'lim muassasalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda budjetdan tashqari moliyalashtirish masalalarini hal qilish, ta'lim muassasalarini litsenziyalash va sertifikatlash talablarining kuchayishi, o'quvchilarning sifat tarkibidagi o'zgarishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish hamda rahbarlarning kasbiy faoliyatining barcha jihatlarida boshqaruvni professionalashtirish zarurati bilan tavsiflanadi.

Bugungi kunda kasbiy ta'lim tizimida kuchli tahlil va diagnostika asosida "menejer profili"ni yaratish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada individual yondashuvning asosiy prinsipi – "bir xil o'lchovli diagnostika barcha uchun bir xil darajada mos kelmaydi" degan g'oyaga asoslanadi. Shu sababli aniq va ko'p o'lchovli diagnostika tizimidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'rganilgan ma'lumotlar asosida kengaytirilgan diagnostika usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi: strategik ko'nikmalarni ekspert baholash, psixometrik testlar va boshqaruv uslublarni aniqlash, "data-driven" muassasa tahlili hamda xalqaro benchmarking. Strategik ko'nikmalarni ekspert baholash jarayonida anketalar bilan cheklanib qolmasdan, real vaziyatlarga asoslangan keys-stadi (case studies) usulidan foydalaniladi. Psixometrik testlar, jumladan Mayers-Briggs (MBTI) yoki Hogan testlari rahbarning muloqot uslubi, qaror qabul qilish jarayoni hamda stress sharoitida ishlash qobiliyatini aniqlash imkonini beradi. "Data-driven" muassasa tahlili doirasida har bir rahbar o'zi faoliyat yuritayotgan muassasaning PESTLE (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, qonunchilik va ekologik omillar) hamda SWOT (kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar va xavflar) tahlilini amalga oshiradi. Rahbarning ushbu tahlil natijalarini to'g'ri talqin qilish hamda ularga asoslangan strategiya ishlab chiqish qobiliyati alohida baholalanadi. Xalqaro benchmarking jarayonida esa rahbarning kompetensiyalari Yevropa Kasbiy Ta'limni Rivojlantirish Markazi (Cedefop) tomonidan ishlab chiqilgan rahbarlik modeli yoki WorldSkills standartlari bilan solishtiriladi.

Shuningdek, shaxsiy rivojlanish rejasi (ShRR) ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, u individual ta'lim marshrutini belgilovchi tizimli hujjat hisoblanadi. Mazkur reja faqat vazifalar ro'yxati emas, balki rivojlanish strategiyasini belgilovchi "rivojlanish shartnomasi" sifatida qaraladi. ShRR odatda to'rtta asosiy elementdan iborat bo'ladi: aniq va o'lchanadigan maqsadlar, ko'p qirrali o'rganish faoliyatlari (blended learning), mentorlik va kouching tizimi hamda amaliy loyihalar asosidagi o'rganish. Masalan, aniq maqsad sifatida "2026-yil 4-choragi oxirigacha kasbiy ta'lim muassasasida yangi ijtimoiy sheriklik kengashi mexanizmini joriy etish orqali hamkor tashkilotlarning innovatsion takliflari sonini 30 % ga oshirish" kabi vazifalar belgilanishi mumkin. Ko'p qirrali o'rganish faoliyatlari doirasida LinkedIn Learning yoki Coursera platformalaridagi boshqaruv va liderlik kurslaridan foydalanish tavsiya etiladi. Mentorlik va kouching jarayonida tajribali texnikum direktori mentor sifatida faoliyat yuritadi, professional biznes-kouch esa rahbarning ichki salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, Action Learning Projects (ALP) usuli orqali rahbarlar o'z muassasasidagi real muammolarni guruhviy loyiha asosida hal etishga jalb etiladi. Stajirovka va tajriba almashinuvi ham muhim bo'lib, rahbarlarning ishlab chiqarish korxonalari yoki xalqaro tashkilotlarda qisqa muddatli amaliyot o'tashi professional rivojlanishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda resurslar va vaqt taqsimoti ham aniq rejalashtirilishi lozim, ya'ni moliyaviy mablag'lar, vaqt resurslari va texnik vositalar oldindan belgilanishi kerak.

XULOSA

Hozirgi davrda kasbiy ta'lim muassasasi rahbarining kompetensiyasi eng avvalo uning doimiy ravishda o'rganishi va o'zgarishlarga moslashish qobiliyati bilan belgilanadi. Individual yondashuvga asoslangan rivojlanish tizimi zamonaviy ta'lim muhitida zarur bo'lgan moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Bu esa O'zbekistonda zamonaviy "ta'lim menejeri" modelini shakllantirishning muhim ilmiy-amaliy yo'nalishi hisoblanadi. Mazkur model doirasida rahbar nafaqat ta'lim muassasasini boshqaruvchi shaxs, balki o'qituvchilar uchun namuna,



biznes va jamoatchilik uchun hamkor, o'quvchilar uchun yetakchi hamda o'zi uchun doimiy ravishda o'rganib boruvchi mutaxassis sifatida namoyon bo'ladi.

Natijada bu yondashuv nafaqat alohida ta'lim muassasalarining samaradorligini oshiradi, balki butun O'zbekiston kasbiy ta'lim tizimining global raqobatbardoshligi va innovatsion salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Islohotlarning muvaffaqiyati endilikda faqat siyosiy yoki moliyaviy omillar bilan emas, balki har bir texnikum direktorining shaxsiy professional salohiyati bilan ham belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Маслова О. П., Сафронов Е. Г. Развитие управленческих компетенций руководителя в повышении результативности бизнес-процессов // Вестник Поволжского государственного университета сервиса. Серия: Экономика. – 2020. – №4(63). – С. 50–55. – URL: https://pvguseconomy.ru/wpcontent/uploads/2023/04/Vestnik-PVGUS-2020-4_63-16.12.2020.pdf (дата обращения: 13.11.2023).
2. Кiyamov N. S., Shomaxmatova Z. Sh. Kasbiy kompetentlik va ularning turlari nomli ilmiy maqola. – 2022.
3. Панфилова А. П., Михальченко С. С. Развитие эмоционального интеллекта как составляющей социальной компетентности менеджеров // Человек и образование. – 2013. – №4(37). – С. 66–70. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-emotsionalnogo-intellekta-kaksostavlyayuschey-sotsialnoy-kompetentnosti-menedzhero/viewer> (дата обращения: 25.11.2023).
4. Махмутова Е. Н., Андреева М. М., Дмитренко Т. А. Социально-психологический тренинг как средство формирования коммуникативной компетентности студентов-менеджеров // Интеграция образования. – 2018. – Т. 22, №1(90). – С. 91–106. – DOI: 10.15507/1991-9468.090.022.201801.091-106. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsialno-psihologicheskij-trening-kak-sredstvoformirovaniya-kommunikativnoy-kompetentnosti-studentov-menedzhero/viewer> (дата обращения: 29.11.2023).
5. Сарафанова И. Е. Концепция отбора игровых технологий для формирования организационно-управленческой компетентности менеджера // Ярославский педагогический вестник. – 2022. – №3(126). – С. 43–51. – DOI: 10.20323/1813-145X-2022-3-126-43-51. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kontseptsiya-otbora-igrovyyh-tehnologiy-dlyaformirovaniya-organizatsionno-upravlencheskoy-kompetentnosti-menedzhera/viewer> (дата обращения: 29.11.2023).
6. Чернобай Е. В. Логика изменений в системе образования города Москвы. – М.: Просвещение, 2015. – 112 с.
7. Звеков В. П. Государственное и муниципальное управление. – М.: Дрофа, 2012. – 105 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.